

XALQARO HUQUQNING ASOSIY TAMOYILLARI VA ULARNING BMT USTAVIDAGI AKS ETISHI

Sobirjonova Saida Sarvar qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xalqaro Jurnalistika fakulteti

Xalqaro munosabatlar yo'nalishi

2-bosqich talabasi talabasi

+998 94 944 89 83

sobirjonovasaida73@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro huquqning asosiy tamoyillari va ularning Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Ustavidagi huquqiy ifodasi tahlil qilinadi. Xususan, davlatlar suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish hamda xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash prinsiplari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu tamoyillarning xalqaro huquq tizimidagi o'rni va zamonaviy xalqaro munosabatlardagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Kalitso'zlar: BMT Ustavi, kuch ishlatmaslik, xalqaro huquq prinsiplari, hududiy yaxlitlik, o'zini o'zi mudofaa qilish, xalqaro shartnoma.

Аннотация: В данной статье анализируются основные принципы международного права и их правовое закрепление в Уставе Организации Объединённых Наций (ООН). В частности, рассматриваются принципы суверенного равенства государств, неприменения силы или угрозы силой, мирного разрешения споров, добросовестного выполнения международных обязательств, а также права народов на самоопределение. Кроме того, на основе научных источников освещаются роль данных принципов в системе международного права и их значение в современных международных отношениях.

Ключевые слова: Устав ООН, неприменение силы, принципы международного права, территориальная целостность, право на самооборону, международный договор.

Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari zamonaviy davlatlararo munosabatlarning fundamentini tashkil etadi. 1945-yilda tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) o'z Ustavi orqali ushbu prinsiplarni birinchi marta majburiy yuridik me'yorlar darajasiga ko'tardi. Shu tariqa xalqaro hayotda yuzaga keladigan ziddiyatlar va to'qnashuvlarni tartibga soluvchi universal huquqiy tizim qaror topdi. Xalqaro hayotda davlatdan ustun turuvchi yagona hokimiyat mavjud emas. Bu holat kuch

subyektlarning o'z ixtiyorida bo'lishiga imkon beradi. Bunday vaziyatda xalqaro tartibotni saqlashning yagona yo'li — kuch ishlatishning aniq huquqiy doiralarini belgilashdir. Aynan shu zaruriyat BMT Ustavining 2-moddasida mustahkamlangan prinsiplar majmuasini hayotga olib keldi. Ushbu maqolaning maqsadi — BMT Ustavida belgilangan besh asosiy prinsipni tizimli tahlil qilish, ularning normativ mazmunini ochib berish va zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o'rnini baholashdan iborat. [1].

Kuch ishlatmaslik va tahdid qilmaslik prinsipi

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, kuch ishlatmaslik prinsipi BMT Ustavining 2-modda 4-bandida to'g'ridan-to'g'ri belgilangan bo'lib, u xalqaro huquqning hozirgi zamon tizimidagi markaziy o'rinni egallaydi. «Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolari har qanday davlatning hududiy daxlsizligiga yoxud siyosiy mustaqilligiga zid ekani va shuningdek qaysidir jihatdan Birlashgan Millatlar maqsadlariga muvofiq emasligi tufayli kuch bilan tahdid qilish yoki uni ishlatishdan tiyladilar». — BMT Ustavi, 2-modda, 4-band. Prinsipning normativ mazmuniga quyidagilar kiradi: boshqa davlat hududini okkupatsiya qilish taqiqi; kuch bilan bog'liq repressiv aktlarni amalga oshirish man etilishi; uchinchi davlatga qarshi agressiyaga hudud berib turishning taqiqlanishi; fuqarolik urushi yoki terrorizmni qo'llab-quvvatlash man etilishi. Shuningdek, yollanma qurolli kuchlarni tashkillashtirish yoki rag'batlantirish ham ushbu prinsipning buzilishi hisoblanadi. Biroq BMT Ustavi ikki holat uchun istisno nazarda tutadi: birinchisi — o'zini o'zi mudofaa qilish huquqi (51-modda); ikkinchisi — Xavfsizlik Kengashining sanksiyasi asosida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar (39 va 42-moddalar). O'zini o'zi mudofaa qilish huquqi faqat hujum qurboni bo'lgan davlatga tegishlidir. U hujum fakti haqida bayonot berib, bu xususda BMT Xavfsizlik Kengashiga zudlik bilan xabar qilishi shart. [2]. Bunday xabarning yo'qligi davlatning o'zini mudofaa talabini zaiflashtiradi. BMT Ustavi nafaqat yakka tartibdagi, balki jamoaviy o'zini mudofaa qilish huquqini ham tan oladi. Biroq uchinchi davlatlar jabrlanuvchi davlatning so'rovi bo'lmasa, bunday choralarni qo'llay olmaydi.

Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish prinsipi

1970-yilda qabul qilingan Deklaratsiyaga muvofiq, har bir davlat boshqa davlatlar bilan yuzaga kelgan nizolarni xalqaro tinchlik, xavfsizlik va adolatga xavf tug'dirmaydigan usullar orqali hal etishi shart. Ushbu prinsip BMT Ustavining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda kuch ishlatish yoki tahdid qilishning oldini olishga xizmat qiladi. [3]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mazkur prinsip mintaqaviy va universal xalqaro huquqiy hujjatlarda deyarli bir xil mazmunda mustahkamlangan va xalqaro huquqning umumtan olingan qoidalaridan biri sifatida shakllangan. Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish prinsipi davlatlarga o'zaro kelishmovchiliklarni diplomatik vositalar orqali bartaraf etish majburiyatini yuklaydi. Bunday vositalarga muzokaralar, vositachilik, yarashtirish, arbitraj, sud tartibida ko'rib

chiqish, xalqaro tashkilotlar ishtirokida muhokama o'tkazish hamda boshqa tinch usullar kiradi. Davlatlar mazkur vositalardan foydalanishda erkin bo'lsalar-da, ular nizoni keskinlashtiruvchi yoki xalqaro barqarorlikka tahdid soluvchi harakatlardan tiyilishi lozim. Muhim jihati shundaki, nizolashayotgan tomonlar tinch yo'l bilan tartibga solishdan bir tomonlama ravishda bosh tortish huquqiga ega emas. Xalqaro huquq nuqtai nazaridan hech bir nizo ushbu prinsip amal qilish doirasidan tashqarida qolmaydi. Shu sababli davlatlar yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni xalqaro huquq normalari va o'zaro hurmat tamoyillari asosida hal etishga intilishi kerak. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda ushbu prinsipning mazmuni yanada kengaydi. Hozirgi sharoitda u faqat mavjud nizolarni bartaraf etishni emas, balki nizo profilaktikasi — ya'ni mojarolarning kelib chiqish sabablarini oldindan aniqlash, ishonchni mustahkamlash, siyosiy muloqotni rivojlantirish va ehtimoliy ziddiyatlarning oldini olishni ham qamrab oladi. Shu jihatdan mazkur prinsip xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashning muhim huquqiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi

Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi xalqaro huquq tizimining eng asosiy va poydevoriy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Bu prinsip xalqaro huquq bilan bir vaqtda shakllangan bo'lib, uning yuridik kuchi va barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Agar ushbu prinsip mavjud bo'lmaganida, xalqaro huquq normalari majburiy kuchga ega bo'lmagan oddiy tavsiyalar darajasiga tushib qolgan bo'lar edi. Shu sababli u xalqaro huquqning amaliy ishlash mexanizmini ta'minlaydigan fundamental qoida sifatida e'tirof etiladi. BMT Ustavining 2-modda 2-bandiga muvofiq, barcha a'zo davlatlar Ustavdan kelib chiqadigan majburiyatlarni vijdonan bajarishi shart. Bu qoida davlatlarning xalqaro maydondagi xatti-harakatlari faqat rasmiy huquqiy majburiyatlarga emas, balki halollik, ishonchlilik va yaxshi niyat tamoyillariga asoslanishi kerakligini anglatadi. Ya'ni davlatlar o'z zimmasiga olgan kelishuvlarni faqat formal ravishda emas, balki real mazmunda ham to'liq bajarishi lozim. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vijdoniylik prinsipi bir nechta muhim huquqiy majburiyatlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, davlatlar har bir vaziyatda faktik holatlarni to'liq, xolis va halol baholashi kerak. Bu xalqaro munosabatlarda noto'g'ri talqin yoki ataylab buzib ko'rsatishning oldini oladi. Ikkinchidan, qo'llaniladigan huquqiy normalar vijdonan tanlanishi lozim, ya'ni davlat o'z manfaatiga mos keladigan, lekin huquqiy jihatdan noto'g'ri talqinga asoslangan normani sun'iy ravishda qo'llamasligi kerak. Uchinchidan, tanlangan norma to'liq va so'zsiz tatbiq etilishi zarur. Bu uning mazmunini buzmasdan, to'liq hajmda bajarilishini anglatadi. To'rtinchidan esa, huquqlardan suiiste'mol qilishdan tiyilish majburiyati mavjud bo'lib, davlatlar xalqaro huquq normalarini o'z manfaatlarini noo'rin kengaytirish yoki boshqa davlatlarga zarar yetkazish uchun ishlatmasligi kerak. Muhim huquqiy qoida sifatida shuni ta'kidlash lozimki, davlat xalqaro majburiyatni bajarmaganligini milliy

qonunchilikka tayanib oqlay olmaydi. Xalqaro huquqda “ichki huquq” xalqaro majburiyatlarni buzish uchun asos bo‘la olmaydi. Bundan tashqari, majburiyatni buzgan subyekt o‘sha normadan kelib chiqadigan huquqlardan ham foydalanish imkoniyatini yo‘qotadi, ya’ni huquq va majburiyat o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud bo‘ladi.

Hududiy yaxlitlik prinsipi

Hududiy yaxlitlik prinsipi xalqaro huquqning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, u BMT Ustavining 2-modda 4-bandida mustahkamlangan. Ushbu normaga ko‘ra, har qanday davlatning hududiy daxlsizligiga qarshi kuch ishlatish yoki kuch bilan tahdid qilish qat’iyan taqiqlanadi. Bu qoida xalqaro munosabatlarda davlat suverenitetini himoya qilish va hududiy chegaralarning buzilmasligini ta’minlashga xizmat qiladi. 1975-yilda qabul qilingan YEXHK (Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi) Yakunlovchi aktida ham hududiy yaxlitlik prinsipi alohida qayd etilib, BMT Ustaviga zid bo‘lgan har qanday harakatlar, xususan davlat hududiga tajovuz qilish yoki uni bo‘lishga qaratilgan urinishlar qat’iyan man etilishi ta’kidlangan. Bu esa ushbu prinsipning nafaqat universal, balki mintaqaviy darajada ham mustahkam huquqiy asosga ega ekanini ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hududiy yaxlitlik prinsipi faqatgina davlat chegaralarining jismoniy daxlsizligini emas, balki uning tabiiy resurslari va boyliklarini ham davlat roziligisiz o‘zlashtirishni taqiqlaydi. Ya’ni boshqa davlatlar yoki tashqi subyektlar tomonidan davlat hududidagi tabiiy resurslardan ruxsatsiz foydalanish ham ushbu prinsipga zid hisoblanadi. Shuningdek, Amerika Davlatlari Tashkiloti Ustavi (1-modda) hamda Afrika Birdamligi Tashkiloti Xartiyasining 2 va 3-moddalarida hududiy yaxlitlik davlatlararo munosabatlarning asosiy tamoyili sifatida belgilangan. Bu holat hududiy yaxlitlik prinsipining global miqyosda umumtan olingan va majburiy xarakterga ega normaga aylanganini tasdiqlaydi.[4],[5].

Xalqlarning teng huquqliligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilash prinsipi

Xalqlarning teng huquqliligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilash prinsipi BMT Ustavining 1-modda 2-bandida mustahkamlangan bo‘lib, unda “xalqlarning teng huquqliligi va ularning o‘z taqdirini o‘zi belgilashini hurmat qilish” g‘oyasi asosiy yo‘nalish sifatida belgilangan. Ushbu prinsip xalqaro huquqda xalqlarning siyosiy maqomini erkin belgilash, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish yo‘lini mustaqil tanlash huquqini ifodalaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur prinsip dastlab mustamlakachilik tizimiga qarshi kurash vositasi sifatida shakllangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi xalqlarni chet el hukmronligi va istibdodidan ozod etish edi. Shu jihatdan u dekolonizatsiya jarayonlarida muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilgan va ko‘plab davlatlarning mustaqillikka erishishiga zamin yaratgan. 1966-yilda qabul qilingan Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro paktlar ushbu prinsipni yanada kengaytirib, uni inson huquqlari tizimi bilan bog‘lab qo‘ydi. Xususan, Fuqaroviy va siyosiy

huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 27-moddasiga muvofiq, etnik, diniy va til jihatidan ozchiliklar o'z madaniyatidan foydalanish, o'z diniga e'tiqod qilish hamda ona tilidan erkin foydalanish huquqiga ega ekanligi kafolatlanadi. [6],[7]. Bu esa o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipining nafaqat davlatlar darajasida, balki inson huquqlari darajasida ham qo'llanilishini ko'rsatadi. BMT Bosh Assambleyasining 1992-yildagi Deklaratsiyasi esa ushbu yo'nalishni yanada mustahkamlab, davlatlarga o'z hududidagi ozchiliklarning etnik, madaniy, diniy va til o'ziga xosligini saqlash hamda rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish majburiyatini yuklaydi. Shu tariqa, o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipi zamonaviy xalqaro huquqda ham davlat suvereniteti, ham inson huquqlari tizimi bilan uzviy bog'liq kompleks norma sifatida shakllangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, BMT Ustavida belgilangan asosiy xalqaro huquq prinsiplari o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiradigan yaxlit tizimni tashkil etadi. Ular alohida normalar majmui sifatida emas, balki yagona huquqiy konsepsiya sifatida faoliyat yuritadi va xalqaro tartibotning barqarorligini ta'minlaydi. Kuch ishlatmaslik prinsipi va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish prinsipi bir-birini mantiqan to'ldiruvchi ikki asosiy qoidani ifodalaydi. Birinchisi xalqaro munosabatlarda kuch ishlatishni qat'iyan taqiqlasa, ikkinchisi yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni hal etishning muqobil va qonuniy yo'llarini — diplomatiya, muzokara va boshqa tinch vositalarni belgilab beradi. Shu jihatdan ular xalqaro xavfsizlik tizimining o'zaro bog'liq ikki tayanchi sifatida namoyon bo'ladi. Hududiy yaxlitlik prinsipi va xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipi o'rtasida esa murakkab huquqiy muvozanat mavjud. Bir tomondan davlatlarning hududiy daxlsizligi kafolatlanadi, ikkinchi tomondan esa xalqlarga o'z siyosiy maqomini belgilash huquqi beriladi. Xalqaro huquq amaliyotida bu ziddiyat "ichki o'z taqdirini o'zi belgilash" konsepsiyasi orqali yumshatiladi, ya'ni xalqlar avvalo davlat ichida siyosiy, ijtimoiy va huquqiy o'zgarishlar orqali o'z huquqlarini amalga oshirishi nazarda tutiladi. Xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi esa butun tizimning asosiy kafolati sifatida namoyon bo'ladi. U boshqa barcha prinsiplarning amalda ishlashini ta'minlaydi, chunki ushbu majburiyatga rioya qilinmasa, xalqaro huquq normalari amaliy kuchga ega bo'lmay qoladi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro majburiyatlarga sodiqlik huquqiy davlatning ham muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy xalqaro munosabatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, xalqaro huquq prinsiplarining normativ mustahkamlanishi va ularning real hayotda qo'llanilishi o'rtasida hanuzgacha muayyan tafovut mavjud. Xalqaro huquq tizimining kelajakdagi rivoji aynan shu tafovutni qisqartirish va prinsiplarning amaliy samaradorligini oshirishga bevosita bog'liqdir.

Xulosa

Tadqiqot asosida quyidagi umumlashtirilgan xulosalar shakllandi. Birinchidan, BMT Ustavida mustahkamlangan besh asosiy prinsip — kuch ishlatmaslik, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish, hududiy yaxlitlik hamda xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash tamoyillari zamonaviy xalqaro huquqning o‘zaro teng va bir-birini to‘ldiruvchi poydevorini tashkil etadi. Ikkinchidan, mazkur prinsiplar faqat BMT Ustaviga emas, balki bir qator muhim xalqaro-huquqiy hujjatlarda ham mustahkamlangan. Xususan, 1970-yilgi Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi Deklaratsiya, 1974-yilgi Agressiya ta‘rifi, 1975-yilgi Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining Xelsinki Yakunlovchi akti hamda boshqa mintaqaviy va universal hujjatlar ularning normativ asosini yanada kengaytiradi. Uchinchidan, xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi boshqa barcha prinsiplarga nisbatan metaprinsip sifatida namoyon bo‘ladi. U xalqaro huquq tizimining ichki uyg‘unligini ta‘minlab, qolgan prinsiplarning real huquqiy samaradorligini kafolatlaydi. To‘rtinchidan, hududiy yaxlitlik va xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash prinsiplari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat xalqaro huquqning eng murakkab masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu ziddiyatni yumshatishda “ichki o‘z taqdirini o‘zi belgilash” konsepsiyasi muhim o‘rin tutadi va amaliyotda davlat ichidagi siyosiy-huquqiy mexanizmlar orqali hal etishga intiladi. Xulosa qilib aytganda, BMT Ustavi prinsiplari oddiy deklarativ qoidalar emas, balki xalqaro tartibotning huquqiy tayanchi hisoblanadi. Ularning to‘liq va samarali amalga oshirilishi nafaqat davlatlar manfaatlariga, balki butun insoniyatning tinchlik, xavfsizlik va barqaror rivojlanish ehtiyojlariga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xalqaro huquq:Ma'ruzalarkursi / Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor A. X. Saidov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 279 b.
2. BMT Ustavi (1945), 2-modda, bandlar: 2, 3, 4; 39, 42, 51-moddalar.
3. BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi 2625 (XXV), 1970-yil — Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya.
4. BMT Xavfsizlik Kengashining 1974-yil 14-dekabrdagi rezolyutsiyasi — Agressiya ta'rifi.5
5. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi Yakunlovchi akti, Xelsinki, 1975-yil.6
6. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1966-yil, 27-modda.
7. BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi 47/135, 1992-yil — Milliy yoki etnik, diniy va til ozchiliklar huquqlari to'g'risidagi Deklaratsiya.